


# Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2023-yil 10-yanvar, seshanba,
3 (23.724)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz


**KUN HIKMATI**

O'zidan kamchilik izlamagan odam bahona izlashni odat qiladi

*Kun surati*





*Shu haftada yurtimizda anomal sovuq kutilayotgani sababli Samarqand shahrining markaziy ko'chalarida ekilgan manzarali daraxt va gul butalari viloyat obodonlashtirish boshqarmasi mutaxassislari tomonidan polietilen plyonkalar bilan o'rab chiqilmoqda.*

*– Xorijdan keltirilgan ko'chatlar mahalliy iqlimga moslashmaganligi sababli qattiq sovuqqa chidamsiz bo'ladi, - deydi viloyat obodonlashtirish boshqarmasi bosh agronomi Abdulatif Bahodirov. – Joriy haftada kuchli sovuq kutilayotganligi tufayli ko'chatlarni plyonka bilan o'rab, saqlab qolishimiz mumkin. Kelgusi yildan ular tabiatimizga moslashib olgach, o'ramasak ham bo'ladi.*

*Hozirda Samarqand shahri ko'chalarida 25 mingdan ziyod manzarali gul va daraxt ko'chatlari mavjud.*

**Baxtiyor MUSTANOV olgan suratlar.**

# 350 dona elektrobus uchun YTTB KREDIT ajratadi

**Samarqand shahrida 2022-2030-yillarda jamoat transporti tarmog'ini rivojlantirish maqsadida Transport vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi hamda "Simetra" xorijiy kompaniyasi hamkorligida master reja ishlab chiqilgan.**



Unda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha tadbirlarda maksimal samaradorlikka erishish uchun aniq mexanizm hamda holatni baholash vositasini yaratish, transport va jamoat transporti infratuzilmasini uyg'unlashgan holda rivojlantirishning manzilli tadbirlarini ishlab chiqish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Viloyat transport boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Akobir Ashurov ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

– Master rejada ko'zda tutilgan yangi 8 ta magistral va 33 ta yetkazib beruvchi yo'nalishlarni tashkil etish yuzasidan "Viloyatda ochilishi rejalashtirilayotgan yo'nalishlarning harakat xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash bo'yicha" komissiyaning xulosasi tasdiqlandi, – dedi A.Ashurov. – Shahar avtobus yo'nalishlarining takrorlanish darajasi 40 foizga kamaytiriladi va zamonaviy avtobus va elektrobuslarning yangi yo'nalishlarga joylashtirilishi bilan Samarqand shahridagi 2 ta mikroavtobus hamda 20 dan ortiq avtobus yo'nalishlari tugatiladi, qolganlari optimallashtiriladi.

Harakat tarkibini barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy katta va o'rta sig'imli avtobuslar bilan yangilash maqsadida shahar jamoat transporti yo'nalishlariga Xitoyda ishlab chiqarilgan katta sig'imli avtobuslar joylashtirilmoqda. Birinchi bosqichda keltirilgan 20 ta avtobus yangi tashkil etilgan uchta yo'nalishda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda jamoat transportida shaharning bir nuqtasidan ikkinchisiga eng uzun yo'nalish bo'yicha uzog'i bilan 30 daqiqada yetib borish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida birinchi bosqichda Bo'stonsaroy va Ibn Sino ko'chalarida 5,5 kilometr masofada jamoat transporti uchun alohida yo'lak tashkil etilmoqda.

A.Ashurovning qayd etishicha, shahar jamoat transporti yo'nalishlarida xizmat ko'rsatib kelayotgan tashuvchilarga har bir yo'lovchini tashish xarajati va cheklangan tarif o'rtasidagi tafovutni avtomatlashtirilgan to'lov tizimi yordamida qoplab berish tizimi yo'lga qo'yildi. 2022-yil noyabr oyiga qadar shahar atrofi yo'nalishlarida avtobusda yo'lovchi tashuvchi korxonalarga 1 milliard 370 million so'mlik subsidiya olish uchun hujjatlar mahalliy Kengashga taqdim etildi va 717 million 480 ming so'm tashuvchilarga to'lab berildi.

Davlatimiz rahbari huzurida 2022-yil 29-aprel kuni Samarqand shahrida jamoat transportini rivojlantirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan taqdimot davomida Samarqand shahrida avtobusda yo'lovchi tashuvchi korxonalarga yo'lovchilarni tashishdan ko'rilgan zararlarni qoplab berish vazifasi qo'yilgan edi. Bunda "ATTO" elektron to'lov tizimi orqali to'langan summadan ko'rilgan zarar 2022-yil 1-noyabr holatida 65 million 754 ming so'm pul mablag'lari tashuvchilarga to'lab berildi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'rtasida Samarqand shahar jamoat transporti uchun 350 ta elektrobus xarid qilish hamda ular bilan bog'liq infratuzilmani yaratish bo'yicha umumiy qiymati 95 million dollarlik loyiha amalga oshirilmoqda. Ayni paytda viloyat transport boshqarmasi muassisligidagi "Samarqand yo'lovchi trans" davlat korxonasi tomonidan elektrobuslarni olib kelish yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, dastlabki 100 dona elektrobusni xarid qilish yuzasidan xalqaro tender jarayonlari boshlangan.

Matbuot anjumanida qayd etilishicha, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida Samarqand viloyati shahar va tumanlarida jamoat transportida bepul yurish huquqiga ega bo'lgan yo'lovchilar ro'yxatga olinib, 10048 nafar imtiyozga ega fuqaro reestri shakllantirildi. Ayni paytda bu imtiyozdan foydalanuvchilar (guvohnoma olganlar) 1034 nafarni tashkil etmoqda.

*Dolzarb mavzu*

**Ob-havoning keskin o'zgarishi tufayli kommunal sohalarda ko'plab muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Shu sababli viloyat ichki ishlar boshqarmasida, barcha elektr ta'minoti korxonalarida va tuman, shahar hokimliklarida uzluksiz ish olib boruvchi navbatchilik shtablari tashkil etildi.**

# Shtablar ishlaydi



"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filialining barcha tuman va shahar elektr ta'minoti korxonalarida 24 ta avariyaga qarshi brigada tashkil etilgan.

Transformator punktlarida nosozliklar kuzatilsa, almashtirish uchun qo'shimcha transformator va muhim ehtiyot qismlar zaxirasi yaratildi.

Shuningdek, elektr energiya ishlab chiqarish ob'yektlari, yuqori va past kuchlanishli elektr tarmoqlari, transformator punktlarida yirik avariyalar vujudga kelishining oldini olish maqsadida viloyatimiz hududlarida, tuman, shahar hokimliklari bilan kelishgan holda elektr energiyasi ta'minotida qisqa muddatli cheklovlar kiritilgan.

Fuqarolarimiz elektr energiyasi muammolari yuzasidan respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan 1154 qisqa raqamli Call-markaziga yoki filialdagi tezkor dispetcherlik xizmatining (95) 410-01-08, (95) 500-97-52 raqamli telefonlariga murojaat qilishlari mumkin.

"Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filialiga qarashli barcha bo'limlarda tashkil etilgan tezkor avariya brigadalariga maxsus texnikalar va tajribali mutaxassislar biriktirildi.

"Hududgaz Samarqand" gaz ta'minoti filiali fuqarolardan muammoli vaziyatlarda 104 yoki 66-239-78-11, 66-239-78-12, 66-239-78-17 telefon raqamlariga murojaat qilishlarini eslatib o'tadi.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

*Mulohaza*

# SIYOB ARIG'INING QADRI TIKLANADIMI?

**Siyob arig'i Samarqand bilan tengdosh. U Toyloqdan boshlanib, shaharning ikkinchi hududi - Hazora maskanigacha keladi. Bu obi-hayot manbai haqida tarixiy kitoblarda ko'plab ta'riflar bitilgan: suvining tozaligi, shifobaxshligi, qirg'oqlarining obodligi xususida. Albatta, men bu bitiklarni takrorlab o'tirmoqchi emasman, faqat uning buguniga nazar solishga barchangizni chorlamoqchiman.**



Hozirgi Siyob arig'i, odilona aytadigan bo'lsak, bizning bugungi turmush tarzimizga mutlaqo mos kelmaydi. Chunki uning suvi iste'mol qilishga yaroqsiz. Ikkinchidan, qirg'oqlari tashlandiq holda. Uchinchidan, hovlilarning oqovalari aynan shu ariqqa boshqarib qo'yilgan. To'rtinchidan, sohillari egallangani yetmaganidek, ariq ustiga ham binolar qurib tashlangan. Buni hammamiz bilamiz va ko'rib turibmiz. Lekin hech kim mazkur xatolarni tuzatish haqida jiddiy bosh qotirmayapti.

Yaqinda anjumanlarning birida viloyat hokimi tomonidan Siyob arig'i hududlarini tartibga keltirish tashabbusi aytilganini eshitib, xursand bo'ldim. To'g'ri, ilgari ham bunday takliflar bo'lgandi, lekin sohil bo'yida yashovchilar va ayrim "ma'rakabuzar" kimsalarning o'jarligi tufayli bu ishlar qolib ketgan. Shu sababli bunday xayrli ishni bu gal oqilona, puxta o'ylab, tashkil etish zarur, deb hisoblayman. Negaki, sayyohlar oqimi ko'paygan sari nomi ham, o'zi ham qadimiy bo'lgan bu ko'hna ariq va uning atrofini obod qilish, toza saqlashga ehtiyoj kuchaymoqda. Buni nafaqat viloyat va shahar rahbarlari, balki aholimiz ham tushunib yetishi zarur.

Toshkent shahridan oqib o'tuvchi Anhor kanali sohillari juda chiroyli qilib tartibga keltirilganini ko'pchiligimiz ko'rdik. Nazarimda, Siyob bo'yida yashovchilar tashabbuskor qatlamining ana shu Anhor kanali yoqalariga sayohatini uyushtirish kerak. Toki ular ham bu tarixiy ariq ana shunday fusunkor maskanga aylanishini tasavvur qilsinlar.

Mahalla oqsoqollari va faollari ishtirokida Siyob bo'yida joylashgan barcha maskanlarda viloyatimizning taniqli ziyolilari, arxitektorlar, quruvchilar ishtirokida mashvaratlar o'tkazmoq zarur. Negaki, bu ariq yoqasini obodonlashtirishda odamlarning roziligidan ko'ra, ularning aniq takliflari ham muhimdir.

Shuningdek, ziyolilar, jurnalistlar, blogerlar va suv xo'jaligi mutaxassislari quruvchilar hamrohligida press-tur tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Qilayotgan ishimizning mazmun-mohiyatini, maqsadni aholiga yetkazishda bu tadbir katta yordam beradi.

Va eng muhimi, bu ishlarga Samarqand shahridagi fidoyi tadbirkorlarni jalb qilish kerak.

Shu o'rinda Samarqand shahri aholisiga, aniqrog'i, Siyob arig'i yoqasida yashovchilarga murojaat qilmoqchiman. Bilaman, avlodingiz va qolaversa, siz qadimdan ana shu ariq bo'yida yashab kelyapsiz. Tirikchiligingiz ham, turmush tarzingiz ham, ehtimol, shu ariq suvi bilan bog'langan. Ammo to'g'ri tan olaylik, yillar davomida biz bu suv manbaidan faqat foydalanish, ya'ni daromad olish haqidagina o'yladik, xolos. Uning qadriga yetmadik. Natijada bugun Siyob arig'i bizning e'tiborimizga muhtoj holatga keldi. Shunday ekan, bu ariq atrofini obodonlashtirishga shaxsiy manfaat emas, balki xalqning, million aholilik shu qadimiy shaharning manfaati sifatida qarashlaringizni so'rardim. Vaholanki, mamlakatimizda davlat va jamiyat manfaati yo'lida olib qo'yiladigan har bir qarich yer uchun uning egasini rozi qilish yuzasidan qonunchilik bazasi mavjud. Va bu ish oshkora tarzda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Siyob arig'ining tartibga keltirilishi, sohillarining obodonlashtirilishi yuzlab, minglab xizmat ko'rsatish shoxobchalarini yo'lga qo'yishga imkon beradi. Bu esa shuncha ishchi o'rni paydo bo'ladi hamda shuncha odam qo'shimcha daromad qiladi, deganidir.

Sayyohlarning, qolaversa, xalqimizning Siyob kanalining go'zal, fusunkor sohillarida sayr qilishi, dam olishi va shu hududda barpo etilgan xizmat turlaridan foydalanishi uning bugungi ahvolidan ko'ra biz uchun foydali, samarali, daromadli bo'lishini unutmaylik.

**Farmon TOSHEV.**

# OB-HAVO



Kecha viloyatimizga **Volgabo'yi hududlaridan Rossiya Yevropa qismining shimolida shakllangan sovuq havo massasi** kirib keldi. Shu bois viloyatimizning aksar hududlarida **yomg'ir, qor yog'adi.**

Bugun havo o'zgaruvchan bo'lib, **qor yog'adi, tuman tushadi. Qor ko'chishi** kuzatilishi ham mumkin. Yo'llarda **yaxmalak** yuzaga keladi. Ayrim joylarda shamol tezligi **15-20 metr** soniyagacha kuchayadi. Harorat **kechasi va kunduzi 0-5 daraja sovuq** bo'ladi.

**11-14-yanvar** kunlari yog'ingarchilik bo'lmaydi. Ayrim joylarda **tuman tushadi. Kechasi 10-17, kunduzi 3-8 darajagacha sovuq** bo'ladi.

**Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi.**



# Xorijda ishlayotganlarning oila a'zolari ijtimoiy himoya qilinadi

**Qonunchiligimizda har bir fuqaroning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan. Lekin amaliyot ko'pchilik fuqarolarimiz o'z huquqlarini bilmasligini, bilsa ham uni o'z vaqtida qo'llamasligini ko'rsatmoqda. Adliya idoralariga kelib tushayotgan ko'plab murojaatlar buni tasdiqlaydi. Xorijda mehnat muhojiri sifatida ishlayotganlarning ijtimoiy himoya tizimidan foydalanish masalasi, shu jumladan. Viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi Alisher PRIMOV bilan suhbatimiz sohadagi yangiliklar yuzasidan bo'ldi.**



**— Alisher aka, avvalo, xorijiy davlatda ishlayotgan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, deganda nima nazarda tutiladi? Shu haqda ma'lumot bersangiz.**

— Mamlakatimizda har bir fuqaroning qonuniy manfaatlarini ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Xususan, joriy etilgan xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi xorijiy davlatda ishlash xohishini bildirganlarning huquqini himoya qilishning birinchi va muhim bosqichi hisoblanadi. Bunga fuqarolarni kasb-hunar va chet tillariga o'qitish, zarur ijtimoiy va axborot-maslahat yordamini ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifalari kiradi. Prezidentimizning 2022-yil 1-martdagi "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ayni tartibning barcha huquqiy yechimlari belgilangan.

**— Xorijiy davlatda ishlayotgan fuqarolar va ularning oila a'zolarini moddiy rag'batlantirish qanday tartibda amalga oshiriladi?**

— Qarorga muvofiq, 2022-yil 1-maydan boshlab xorijda ishlayotgan fuqarolar va ularning oila a'zolariga moddiy yordam berish har yili hokim yordamchilarining yozma tavsiyanomasiga asosan amalga oshiriladi. Birinchi navbatda boquvchisi xorijga mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan va "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatda bo'lgan oilalarga bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 2 baravari miqdorida bir martalik moddiy yordam ko'rsatiladi. Shuningdek, mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatda bo'lgan yoki "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"dan biriga kiritilgan, nogironligi bo'lgan oila a'zolariga dori-darmon, nogironlik aravachasi, eshitish apparatlari va ortopedik mahsulotlar xarid qilishi uchun BHMning 5 baravari miqdorida bir martalik moddiy yordam ajratiladi. Bunday oilalardagi pensiya yoshiga yetgan yoki I va II guruh nogironligi bo'lgan fuqarolarga kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriy va profilaktik davolanish muassasalariga bir martalik bepul yo'llanma berilishi ham ko'zda tutilgan.

**— Bu imkoniyatdan barcha mehnat muhojirlarining oila a'zolari foydalanishi mumkinmi?**

— O'rinli savol. Ta'kidlash kerakki, mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning oila a'zolariga yordam pullari va yo'llanmalar berishning ham talablari mavjud. Hujjatga ko'ra, bu imtiyozlar mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolar "Labor migration" dasturiy majmuasida ro'yxatdan o'tgan taqdirdagina qo'llaniladi. Ro'yxatdan o'tish uchun talabgorlar Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga "Labor migration" dasturiy majmuasi orqali elektron murojaat qilishi kerak. Murojaat kelib tushgach, besh kun ichida o'rganiladi. Bu muddatda fuqaroning qonunchilikda belgilangan talablarga javob berishi qo'shimcha hujjatlar talab qilinmagan holda, idoralararo elektron axborot almashinuvi yo'li bilan tekshirilib, hokim yordamchilari va mahallalardagi yoshlar yetakchilaridan yozma tavsiyanomalar olinadi. Shundan so'ng belgilangan talablarga javob beradigan talabgorlarning ro'yxati shakllantirilib, har oyning 25-sanasigacha O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga taqdim etib boriladi. Yordam pullari va yo'llanmalar O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining mablag'lari hisobidan beriladi.

**— Aytaylik, "daftar"lardan biriga kiritilgan fuqaro mehnat migratsiyasiga chiqib ketdi. U ham mazkur imtiyozlardan foydalanish imkoniyatiga egami?**

— Qonunchilikda bunday vaziyatdagi fuqarolar ham e'tibordan chetda qoldirilmagan. Masalan, "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatda bo'lgan yoki ijtimoiy daftarlardan biriga kiritilgan hamda mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan fuqarolarning bolalariga mavsumiy faoliyat yuritadigan oromgohlarga bepul yo'llanmalar berish nazarda tutilgan.

**— Xorijda ta'lim olayotgan yoshlar-chi? Ular ham qo'llab-quvvatlanadimi?**

— Qarorga ko'ra, xorijda vaqtinchalik ishlayotgan va ta'lim olayotgan o'zbekistonlik yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Xorijdagi yoshlar balansi" tizimi shakllantirilib, undagi barcha ma'lumotlar "Yoshlar portali" elektron platformasiga kiritib boriladi. Prezidentimizning 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migrasiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 11-bandida nazarda tutilgan mikroqarzlar 2022-yil 1-martdan boshlab "Yoshlar daftari", "Temir daftar" va "Ayollar daftari"dan biriga kiritilgan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi yo'li bilan vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqib ketayotgan fuqarolarga ham to'lanmoqda.

Shu o'rinda aytish kerakki, bu kabi fuqarolarga nafaqat moddiy yordam ko'rsatiladi, balki tuman (shahar) hokimliklari, hokim yordamchilari, mahallalardagi yoshlar yetakchilari va mahalla raislari tomonidan ularning muammolari va ehtiyojlari o'rganilib, ularning yashash sharoitini yaxshilash, qiziqishidan kelib chiqib, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish, tadbirkorlikka o'rgatish dasturlari doirasida kredit olishida amaliy ko'mak beriladi.

**Mansur HASANOV suhbatlashdi.**

## HUQUQIY MASLAHAT

### Fuqaro doimiy yashash uchun chet elga chiqib ketayotganda

Ma'lumotlarni yig'ish punkti tomonidan xorijga chiqish biometrik pasporti xizmatdan foydalanuvchi murojaat etib, tegishli to'lovlarni amalga oshirgan kundan boshlab, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilingan hollarda esa ma'lumotlarni yig'ish punktida xizmatdan foydalanuvchining biografik ma'lumotlarini, qo'l barmoqlarining elektron izlarini (10 yoshdan katta shaxslar uchun) to'plash, yuzni to'g'ridan raqamli formatda rasmga olish ishlari amalga oshirilgan paytdan boshlab, o'n ish kuni (16 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun qo'shimcha o'rganishlar talab etiladigan alohida hollarda — bir oy) ichida taqdim etiladi.

Quyidagi hollarda xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish bo'yicha davlat xizmati faqat migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari tomonidan ko'rsatiladi:

- fuqaro doimiy yashash uchun chet elga chiqib ketayotganda;
- tegishli Nizomga muvofiq, xorijga chiqish biometrik pasportlari vazirliklar va idoralarning yozma iltimosnomalari asosida rasmiylashtirilishi shart bo'lgan hollarda;
- xorijga chiqish biometrik pasporti surishtiruv, tergov organlari yoki sud tomonidan ashyoviy dalil sifatida olib qo'yilganda;
- xorijga chiqish biometrik pasportining amal qilishi sud ajrimi bilan to'xtatib turilganda.

### Rozilik olish talab etilmaydi

Prezidentimizning 2022-yil 24-avgustdagi "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, endilikda xususiy mulk ob'yekti va u joylashgan hududga mulkdorning ruxsatisiz kirish uchun jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo'lgan choralar qo'llanishi mumkin.

Mulkdor yoki uning vakili o'z mulkini har qanday tajovuzdan huquqni buzishga mutanosib ravishda va huquq buzilishining oldini olish uchun zarur harakatlar doirasida mustaqil himoya qilish huquqiga ega bo'ladi.

Turarjoyga nisbatan mulkdor bilan qarindoshlik aloqalariga ega bo'lmagan shaxslarni ushbu turarjoydan doimiy ro'yxatdan chiqarish uchun ularning roziligini olish talab etilmaydi.

**Nuriddin QURBONOV,**
**Samarqand shahri bo'yicha IIO FMB 3-IIB ichki migratsiya guruhi inspektori.**




# Tug'ruqxonalardagi AHVOL

**Keyingi kunlarda eng ko'p bildirilayotgan fikr uy yoki ishxonani isitish masalasi. Xo'sh, bugun Samarqand shahridagi tug'ruqxonalarda ahvol qanday? Ona va bolalar uchun shaharda qanday sharoitlar yaratilgan? Shu masalalarni o'rganish uchun tug'ruq majmualariga bordik.**

Ilk manzil Samarqand shahar 1-tug'ruq majmuasi bo'ldi. Tug'ruq majmuasi bosh shifokori o'rinbosari Izzat Matrasulov hech ikkilanmay, bizlarni majmuada yaqindagina onalik baxtiga musharraf bo'lgan ayollar yotgan bo'lim tomon boshladi. Bu harakatdan tug'ruqxonada ahvol yaxshiligini tushundik.

- Shifoxonada onalar va chaqaloqlar uchun barcha sharoit yaratilgan, - deydi Izzat Matrasulov. - Palatalar harorati me'yorida, 28-30 darajada issiq. Gaz pasaygani yo'q, xonalarni bemalol isityapmiz. Bir haftada bir marta elektr o'chishi kuzatilishi mumkin. Unda ham zarur choralarni ko'rganmiz. Faqat bir masala, hozir bemorlar kelishi me'yordagidan ko'paygan. Asosan shaharga yaqin tumanlardagi ayollar bizga murojaat qilishyapti.

Palatalarga kirib, farzandli bo'lgan ayollar bilan suhbatlashdik. Aksariyat onalar sharoitlar yaxshiligini, shifokorlar o'z vazifalarini a'lo darajada bajarishayotganini aytdi.

Bemorlar bilan suhbatlashib bo'lgach, shifoxona hovlisiga chiqib, ularning yaqinlari bilan suhbatlashdik. Ular ham ichkaridagi fikrlarni ta'kidlashdi.

Darvoqe, ushbu tug'ruq majmuasida bemorlar yoki ularning yaqinlari fikrlarini yozib qoldirishi uchun telegram bot tashkil qilingan ekan. Onalar tug'ruq majmuasida ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar to'g'risida o'z fikr-mulohazalarini telegram botga yuborishlari mumkin. Xabarlarni to'g'ridan-to'g'ri bosh shifokorning o'zi kuzatib boradi.

Samarqand viloyati perinatal markaziga borganimizda, yo'lakka kirganimizdanoq yuzimizga issiq havo urildi. Tabiiyki, tashqaridagi havodan so'ng bu issiq aldamchi bo'lishi mumkin. Shifokor, bemorlar bilan suhbatlashar ekanmiz, issiqlik masalasida muammo kuzatilmaganiga amin bo'ldik.

Bilasiz, bundan to'rt-besh yil ilgari aynan yuqorida nomlari keltirilgan va boshqa tug'ruq majmualarida issiqlik bilan bog'liq jiddiy muammolar kuzatilar, onalar o'zlari bilan albatta, pech ko'tarib borardi. Ko'tarib borgan pechlari ham elektr energiyasidagi uzilishlar, quvvatning pastligi sabab ko'pincha ish bermasdi. Hatto sham yorug'ida tug'ruq qabul qilingan paytlar ham bo'lganini ko'pchilik yaxshi eslaydi. Endigi kuzatuvlarimiz tumanlardan bo'ladi.

**Munisa SHAMSIYEVA.**

# BIZ QAYERDA XATO QILDIK?

*Bugunning gapi*

**Mustaqillik yillari arafasida qishlog'imizdan bir yigit Rossiya davlatida harbiy xizmatni o'tab qaytdi. Ko'p o'tmay, u ortiga qaytib ketdi. So'ngra ukasini, jiyanini chaqirdi. Birin-ketin qishloq yigitlari Rossiyaga ishlash uchun keta boshladi. O'z navbatida ishga ketgan yigitlardan mo'may pul kela boshlagach, xorijga ishga ketadiganlar soni ortdi. Bu holat deyarli barcha hududlarda kuzatildi. O'sha paytlari ishsizlikdan qutulishning yagona yo'li shu edi go'yo.**

Bir kuni qishloqqa borsam, matematika o'qituvchisi bo'lgan rahmatli opam "Maktab o'quvchilari o'qimay qo'ydi, hatto ba'zilari muallim nega biz o'qishimiz kerak? Bizni Rossiya boqyapti-ku, men ham maktabni bitirsam, ketaman. Baribir hech qayerda o'qimayman, deyapti", dedi xomush bo'lib. - Darsga qiziqmagan o'quvchiga shunchaki dars o'tib kelish juda og'ir, dedi.

Haqiqatda o'sha yillari ta'limga e'tibor ancha susaydi, o'qituvchining ham obro'si tushdi. Sababi, o'qituvchilar ham maktabni tashlab, Rossiyaga keta boshladi. Ba'zi maktablarda erkak o'qituvchilar qolmadi hisob. Bu ham yetmagandek muallimlar paxta terimiga jalb etilar, ta'lim sifati hech kimni qiziqtirmasdi. Natijada o'quvchilar o'qimay, o'qituvchilar o'z ustida ishlamay qo'ydi. Oqibatda yildan yilga abituriyentlarning oliy ta'lim muassasalariga kirish ballari pasayib ketdi. Eng yomon ko'rsatkich joriy yilda qayd etildi. Davlat test markazining ma'lumotiga ko'ra, 51,2 foiz abituriyent 56,7 ball ham to'play olmadi. 56,7 ball — bu to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori 189 balning 30 foizi, ya'ni 2 baho ham emas.

Buni oddiy misol orqali tushuntirib beraman. Yaqinda ona tilidan repetitorlik guruhiga maktabni bitirgan yigit kelibdi.

- Qaysi yo'nalishga o'qishga kirmoqchisan? – deb so'rabdi o'qituvchi.

- Rostini aytsam, men ingliz tilini o'rganmoqchiman. Ammo o'qituvchim menga sen ot, sifat, son, fe'l nimaligini bilmasang, ingliz tilini o'rgatolmayman. Avval ona tilini o'rganib kel, dedi. Shuning uchun ona tilini o'rganishga keldim, aslida menga ona tili kerak emasdi, - debdi.

Tasavvur qilyapsizmi, yigit maktabni bitirguniga qadar ona tili fanidan oddiy bilimlarga ega bo'lmagan. 56,7 ball to'play olmaganlarning bilimi va dunyoqarashi taxminan shunday.

Bugun ta'lim sifatini ko'tarish uchun xorijiy tajribalarga tayanishga harakat qilyapmiz, xuddi avvaldan bizda tajriba yo'qdek. Unda ota-bobolarimiz qanday qilib yetti yoshida Qur'onni yod olishgan? Chunki ko'pchilik olimlarning onalari ilk saboqni uyida o'rgatib qo'yishgan.

**SOLIQ TO'LAMAYDIGAN TADBIRKORLIK BORMI?**

Keyingi yillarda ota-onalar ham farzandining bilimi bilan qiziqmay qo'ydi, ularga faqat pul topish kerakligi uqtiriladi. Oqibatda yoshlar bilim olib, kasb egallashga emas, faqat pul topishga qiziqdi. Hozir ham ayrimlar bolasiga shunday tarbiya beryapti. Biz farzandlarimizga boshqa xalqlar kabi "Sen Vatan uchun xizmat qilishing kerak", "O'z kasbingning yetuk mutaxassisi bo'lib, jamiyatga yordaming tegishi kerak", "Asl maqsading odamlarning og'irini yengil qilish bo'lsin", deb tarbiya bermayapmiz.

Hozirgi yoshlar bilan gaplashsangiz, aksariyatining dardi pul topish. Hatto oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ham diplom olgach, yaxshi maoshli ish topishni, aks holda, chet elga ketishini aytyapti. To'g'ri, inson yaxshi yashashni istaydi, buning uchun uy-joy, mashina olishga harakat qiladi. Xo'sh, undan keyin-chi? Hamma shart-sharoitini qilib olgach, qo'lida biron kasbi bo'lmasa, nima qiladi?

Yaqinda bir taksi haydovchisi xorijda ishlab qaytgani, o'n besh yil davomida oilasi uchun hamma shart-sharoitini qilgani, bankda 20 ming dollar puli borligi, ammo qanday tadbirkorlik bilan shug'ullanishni bilmayotganini aytib qoldi. Maslahat so'ragandi, o'zimcha bir-ikki xil tadbirkorlikni aytib ko'rdim.

- Yo'q, bularning hech qaysi to'g'ri kelmaydi, chunki soliq to'lashim kerak. Davlatga soliq to'lashni xohlamayman, - dedi.

- Har bir tadbirkor davlatga soliq to'laydi-ku, - dedim unga.

- Men shunday tadbirkorlik bilan shug'ullanishim kerakki, davlat mendan hech qanday soliq olmasin, hech kimga pul berishni istamayman, - dedi u.

Vatanni sevmaydigan kishigina mana shunday fikrlaydi. Bu haydovchi na maktabda o'qigan, na vatanparvarlikni o'rgangan, endi esa topgan pulini qanday sarflashni bilmayapti. Hamma narsaga bilim kerakligini shu yoshga kirib ham anglamabdi.

Turkiyada go'dakning beshigiga Vatan bayrog'ini ilib qo'yisharkan. Ular farzandlarini "Sen turkning bolasisan, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishing kerak", deb tarbiyalarkan. Shuning uchun oddiy taksi haydovchisi ham bir kunda qancha pul topganiga qarab, davlatga soliq to'larkan. Soliqdan qochish Vatanga xiyonat deb qaralarkan. Afsuski, bizda buning teskarisi oddiy holdek qabul qilinadi.

**BIZDA PUL YO'QMI YOKI QANOAT?**

Imom Buxoriyga onasi quyidagicha nasihat qilgan ekan:

- O'g'lim, ustozingizning ilmidan, taqvosidan va uning go'zal odobidan ta'lim oling. Quloqlaringiz



ustoz og'zidan chiqayotgan darsni tinglasa, ko'zlaringiz uning odobi, og'ir, vazminligi, odamlarga bo'lgan muomalasini kuzatib, saboq olsin. Bugun o'qigan bir varag'ingiz sizni yaxshi tomonga o'zgartirsa, ikkinchi varag'ini ochib o'qing. Agar birinchi varaq sizning iymoningizni, taqvoyingizni va odobingizni ziyoda qilmasa, aslo ikkinchi varaqqa o'ta ko'rmang. Foydasi kam, ziyoni ko'p bo'lur.

Har qanday buyuk inson ortida buyuk ayol bo'ladi, degani shu. Bizning bugungi onalarimiz ham farzandiga shunday nasihat qilyaptimi? Agar Imom Buxoriyning onasi ham "O'g'lim, sen pul topishing kerak, bilim olishing shart emas", deganida u kim bo'lardi? Bobolarimiz ilm olish uchun xorijga chiqqan bo'lsa, bolalarimiz pul topish uchun chet elga ketyapti. Amerika orzusida bo'lganlar uy-joy, mashinasini sotib, yetmaganiga qarz olib, qing'ir yo'llar orqali sehrli diyorga yetib olishga harakat qilyapti. Aslida bizda pul yo'qmi yoki qanoat?

**RAHBARLAR PEDAGOGIKA DARSI O'TMAGANMI?**

Oliy ta'lim muassasalaridan birida pedagogika fanidan dars bo'layotgan ekan. O'qituvchi:

- Pedagogikada hech kim, hatto ta'lim muassasasi rahbari ham darsni buzishga haqi yo'q. Agar maktab direktorining biror gapi bo'lsa, avval eshikni taqillatib, so'ngra kirishga izn so'raydi, - debdi.

- Domla, nega dekanimiz faqat darsimizning o'rtasida kirib keladi, ammo eshikni taqillatmaydi? – debdi talabalardan biri.

O'qituvchi uning gapini eshitmaganlikka olib, darsni davom ettiribdi. Shu payt xonaga dekan o'rinbosari kirib kelibdi.

- Ertadan kontrakt pullarini to'lamagan talabalar darsga kiritilmaydi, - debdi salom-aliksiz.

Talabalar kulib yuborishdan zo'rg'a o'zlarini tiyibdi, o'qituvchi esa o'tayotgan darsidan izza bo'libdi.

Endi o'zingiz o'ylang, oliy ta'lim muassasalarida amal qilinmaydigan pedagogik qonun-qoidalarga maktabda kim amal qiladi?

**VAQTIDA KITOB O'QIB QO'YGAN MUALLIM...**

Bolaligimda oddiy kolxozchi ayollar ham kitob o'qirdi. "Saodat", "Fan va turmush", "Yoshlik" kabi jurnallarga obuna bo'lardi. Paxta dalalarida tushlikda kitob o'qiganlarini ko'rganman. Kolxozchi ayollar o'qigan kitoblaridan o'zaro bahs qilardi. Hozir-chi?

Hatto o'zini ziyoli sanaydigan ayollar davrasida ham ilm majlisi deyarli kuzatilmaydi. Kimdir qaynonasi, kimdir kelinini yomonlaydi, nari borsa, so'nggi moda haqida suhbatlashiladi.

Bir kuni tahririyatga adabiyot fani o'qituvchisi maqola olib keldi.

- Bolalaringizni qanday qilib kitob o'qishga qiziqtirasiz? – deb so'radim. Maqsadim – mutaxassis tajribasini o'rganish edi.

- To'g'risi, bolalarim kitob o'qimaydi, - dedi u. – Kitob o'qi desam, nega o'zingiz kitob o'qimaysiz, deyishadi. Men vaqtida kitob o'qib qo'yganman, deyman, - dedi g'urur bilan.

Ayolning gapidan hang-mang bo'lib qoldim. Farzandiga kitob o'qitolmagan o'qituvchi o'quvchilarini qanday qilib kitobga mehr qo'ydira oladi? Avval kitob o'qishni o'zidan boshlashi kerak emasmi?

*Kitob o'qimas ekanmiz, korrupsiyaning oldi hech qachon olinmaydi, rahbarlar fuqarolarning muammosini hal etishni emas, murojaatni tezroq yopishni o'ylaydi. Kitob o'qimas ekanmiz, soha mutaxassislari hisobot uchun faqat statistik ma'lumotlar tayyorlash bilan shug'ullanadi. Kitob o'qimas ekanmiz, konstitutsiyaviy huquqimiz nimadan iboratligini bilmaymiz, hech qayerda haq-huquqimizni talab qilolmaymiz. Yo'llarimizning abgorligi ham, uylarimizning sifatsiz qurilayotgani, zo'r mutaxassislarni chet eldan olib kelib ishlatayotganimiz, og'ir kasallarimiz xorijda davolanayotgani, xullas, barcha muammomizga sabab o'qimaganimiz. Eng achinarlisi, farzandlarimizga Vatanni sevdirolmas, kitob o'qitolmas ekanmiz, hatto ta'lim olish uchun xorijga ketayotgan yoshlarimiz ham o'sha yurtda muhojir bo'lib qolishni orzu qilaveradi...*

**Xurshida ERNAZAROVA,**
**"Zarafshon" muxbiri.**

# SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI TO'LIQ RAQAMLASHTIRILDI

**Bugun universitetda ichki hujjatlar, kutubxona ishi, talabalarni yotoqxona bilan ta'minlash elektron portal orqali bajarilmoqda. Universitetning raqamli ta'lim texnologiyalar markazi rahbari Laziz Shukurov bunga qanday erishilganini quyidagicha izohladi:**

***- Universitetimizda elektron hujjatlar almashinuvi yildan-yilga takomillashtirilib, me'yoriga yetkazildi. Bugun ta'lim dargohimizda rahbar oldiga hech qanaqa hujjat olib kirilmaydi. Hamma hujjatlar elektron tarzda rektorga yuboriladi. Buni o'zimiz ishlab chiqdik. Bunday tartibda ishlashni respublikamiz oliy ta'lim muassasalari orasida birinchi bo'lib yo'lga qo'ydik. Masalan, talabnoma, bildirishnoma, buyruq, ariza yoki boshqa hujjatlar rahbarga elektron tarzda yuboriladi. Rektor hujjatni xohlasa, o'zi ko'radi yoki biron mas'ul shaxsga ijrosini bajarishni yuklaydi. Mas'ul shaxsning profilida o'sha yuborilgan hujjat ko'rinadi, kim tomonidan yuborilgani va qancha muddatda bajarilishi ko'rsatiladi.***



**TALABALAR YOTOQXONAGA QANDAY JOYLASHTIRILADI?**

Talabalarni yotoqxonaga joylashtirish masalasi bo'yicha avval dekanat, dekan o'rinbosari, o'qituvchi, tyutor – hamma birdek ishlardi. Hozir esa bizda talabalar turarjoyini muvofiqlashtirish bo'limi bor. Bu bo'limda bir kishining o'zi talabalarning barcha hujjatini elektron tizim orqali qabul qiladi.

Portalimizni hozirgi interfaol hukumat portali bo'lgan my.gov bilan integratsiya qilganmiz. Buning uchun Davlat personallashtirish markazidan shaxsga tegishli ma'lumotlarni olish uchun sertifikat olganmiz. O'sha sertifikat bo'yicha ro'yxat asosida bizga tegishli fuqarolarning yashash joyi, oilaviy sharoiti haqidagi ma'lumotlarni elektron tarzda olamiz. Bu ma'lumotlar talabalarni yotoqxonaga joylashtirishda inson omilisiz, ehtiyoji yuqori bo'lganlarni saralashga yordam beradi. Masalan, talaba yotoqxonaga joylashish uchun onlayn ariza topshiradi. Talaba kam ta'minlanganmi, "Yoshlar" daftariga kirganmi, uzoq viloyatdanmi, portalning o'zi saralab beradi. Shuningdek, qoraqalpog'istonlik talabalar nechanchi kurs bo'lishidan qat'i nazar, yotoqxona bilan ta'minlanadi.

Bu tizimning afzalligi shundaki, talaba hujjat ko'tarib kelib, navbatda turmaydi. Talabaning arizasi ko'rib chiqilgach, unga yotoqxonaga qabul qilingani yoki qabul qilinmagani haqida sms tarzida xabar beriladi. Nima uchun qabul qilinmagani haqida xabarda izoh beriladi. Masalan, ba'zilar "oilamda otam nogiron", degan punktni tanlaydi, lekin asosli hujjat yuklamaydi. Bunday talabaga asosli hujjat yuborishi uchun yana bir imkoniyat beriladi. Agar u otasining nogironligi haqidagi qo'shimcha hujjatni yuklasa, unga yotoqxonadan joy beriladi.

Universitet rektorining o'zi ham ushbu tizimga yuborilgan arizalar va ularga berilgan javoblarni kuzata oladi. Integratsiya orqali talabaning ma'lumotlarini olish va adolatli tarzda ularni turarjoy bilan ta'minlash tizimini ham respublikada birinchi bo'lib joriy etdik.

**KITOBLARGA ELEKTRON BUYURTMA BERISH MUMKIN**

Yaqinda yana bir yangi loyihaga qo'l urdik. Talabalarga qulaylik yaratish maqsadida universitet kutubxonasidagi kitoblarga elektron buyurtma berishni yo'lga qo'ydik. Talaba bevosita saytimizga kirib, qaysi kitob kutubxonada mavjudligini ko'radi, buyurtma beradi va o'sha kitobni kutubxona ushlab turadi. Talaba kelib, o'zining loginini aytadi va kitobni olib ketadi. Ilmiy bo'limdagi kitoblarni uzoq muddatga olish mumkin. Boshqa kitoblar ikki-uch kunga yoki bir oyga beriladi.

Talabadan "Hujjating qani?", "Pasportingni ber", "Talabalik guvohnomang bormi?", "Bizda talabamisan?", degan savollar so'ralmaydi. Loginni aytadi, login kiritilgach, talabaning barcha ma'lumotlari chiqadi. Har bir talabaning olgan, bergan kitoblari ham elektron tarzda hisoblab boriladi. Kutubxonada nechta kitob bor, qanchasi talabalar qo'lida, qanchasi qaytarilgan – hammasining hisoboti ko'rinib turadi.

Agar talaba belgilangan vaqtda kitobni keltirmasa, tizim avtomatik ravishda belgilangan muddatni hisoblab, kitob keltirilmaganini ko'rsatadi.

**MOBIL ILOVAMIZ ORQALI BARCHA XIZMATLARDAN FOYDALANSA BO'LADI**

*Universitetimizning mobil ilovasi bor. Mobil ilova professor-o'qituvchilar, talabalar va ularning ota-onalariga moslashtirilgan. Unda rahbariyat to'g'risida barcha ma'lumotlar, qolaversa, o'quv binolarimizning joylashuvi mavjud. Masalan, endigina qabul qilingan talabalar o'quv binoning nomini biladi, ammo qayerda joylashganini bilmasligi mumkin. Mobil ilovada o'sha binoning nomi tanlansa, avtomat tarzda binoning qayerda joylashgani haqida xarita paydo bo'ladi.*

Shuningdek, mobil ilovada barcha interfaol xizmatlarimiz joylashtirilgan. Ta'lim platformamizga ham mobil ilova orqali kirish mumkin. Birgina mobil ilovamiz orqali barcha xizmatlardan foydalansa bo'ladi. Hatto kutubxonaning ham mobil ilovasi bor, u orqali talaba kitoblarni yuklab olishi mumkin. Ilovaning ichida o'qish imkoniyati bo'lib, talaba ilova orqali kitobni ochganda, kitob haqida qisqacha ma'lumotlar, ya'ni uning nomi, mazmuni, megabayti qanchaligi ko'rinadi.

Mobil ilovalar ko'zni og'ritmasligi uchun kun-tun rejimiga moslangan. Shuningdek, ilovalar o'zbek, rus, ingliz tilida ishlaydi. Kitob yuklangach, istalgan vaqtda uni o'qish mumkin. Masalan, nechanchi betga kelganingizni ham eslab qoladi. O'qishga qulay bo'lishi uchun kitobning parametrlarini ham moslash mumkin, harflarni kattalashtirish, yon tomondan varaqlash yoki tepadan pastga qarab o'qish imkoni bor.

Mobil ilovaga talabalar zerikib qolmasligi uchun oddiy o'yinlarni ham yuklab qo'ydik. Kitob o'qishdan charchasa, biroz o'zini chalg'itishi uchun shunday qildik.

IT sohasi shunday sohaki, unda har kuni yangilik ishlab chiqiladi. Shuning uchun IT mutaxassislari har kuni o'z ustida ishlamasa bo'lmaydi. Bizning 15 kishilik bo'limimiz xodimlari ham raqamli ta'lim texnologiyalari haqidagi bilimlarini takomillashtirib, hayotda qo'llash orqali talabalarga imkon qadar yengilliklar yaratyapti.

**Xurshida ERNAZAROVA**
**yozib oldi.**



## "Quramax Medical" MCHJ

tomonidan O'zbekistonga olib kirilgan barcha preparatlar sotuvi taqiqlandi

*Chuqurlashtirilgan sifat nazorati natijalariga ko'ra, "Dok-1 Maks" hamda "Ambronol" dori vositalarining ayrim seriyalarida propilenglikol moddasi o'rnida yoki u bilan birga etilenglikol va dietilenglikol moddalari mavjudligi ma'lum bo'ldi.*

*Shuni inobatga olgan holda Sog'liqni saqlash vazirligi aholi salomatligini muhofaza qilish va qolgan dorilarni ham qo'shimcha tekshiruvdan o'tkazish maqsadida ehtiyot chorasi sifatida "Quramax Medical" MCHJ tomonidan 2022-yil yurtimiz hududiga olib kirilgan barcha preparatlar sotuvini to'xtatdi.*

*Kun mavzusi*

# Sovuq urmasin, desangiz...

**Anomal sovuq ob-havo sharoitida ko'p yillik daraxtlar, sabzavot ekinlari va chorva hayvonlarini sovuqdan himoya qilish choralarini ko'rish bo'yicha Samarqand viloyati agroxizmatlar markazi (AKIS) mutaxassislari tomonidan tavsiyalar ishlab chiqilib, qishloq xo'jalik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar, fermer va dehqonlar, bog'bonlarga tushuntirilmoqda. Ushbu tavsiyalarni ommaviy axborot vositalari orqali ham aholiga yetkazishni lozim topdik.**

AKIS
SAMARQAND VILOYAT AGROXIZMATLAR MARKAZI

Bog'larni anomal sovuqdan saqlash uchun tutunlash eng samarali yo'l hisoblanadi. Bu nim quruq narsalarni yoqish yoki tutun parda hosil qiladigan shashkalarni tutatib (chet ellarda samolyotdan bog' ustiga tashlanadigan qator kimyoviy birikmalar yordamida ham) hosil qilinadi.

Eng osoni – axlat, go'ng, yaroqsiz nam poxol, shox-shabba, qipiq, barg va boshqa ko'p tutun hamda bug' chiqarib yonadigan materiallardan foydalanishdir. Uyumning katta-kichikligi 1-1,5 metr balandlikda va 1,5-2 metr kenglikda bo'ladi. Tagida quruq va yengil alangalanib yonadigan materiallar, ustiga nam, tutaydigan, yonayotganda ko'p tutun va bug' chiqaradigan materiallar tashlanadi. Uyum ustiga 2-3 santimetr qalinlikda tuproq solinadi, yuqorisida esa tutun chiqishi uchun teshik qoldiriladi. Bog'lardagi harorat keskin pasayganda, uyumlar shamol esayotgan tomondan yondiriladi.

Yongan uyumlardan chiqqan issiqlik havo harorati darajasini bir necha o'n ulushdan 0,75-1,0°C gacha isitishi mumkin. Kuchsizroq sovuqlarda haroratning bunday oshishi ham ijobiy natija beradi. Uyumlar hosil qilishdan asosiy maqsad - ko'proq quyuq, barqaror tutun va bug' chiqarish, ularning bog' ustiga yoyilib, yerning va daraxtlarning nur tarqatishini kamaytirishdan iborat. Tutunlatishni havo harorati isiy boshlagunga qadar davom ettirish va quyosh chiqqanidan bir-ikki soat keyin tugatish lozim.

Bog'larni qondirib sug'orish ham sovuq ta'sirini birmuncha kamaytiradi. Yer beti suv bilan qoplangunga qadar ko'llatib sug'orilsa, suv harorati havo haroratidan yuqori bo'lganligi uchun bog'larni isitadi. Ikkinchi tomondan hosil bo'lgan suv bug'lari yerning va daraxtlarning nurlanishini kamaytiradi hamda havo harorati pasayishiga yo'l qo'ymaydi.

Yurtimizning aksariyat hududlarida o'tgan yil kuz oylarida piyoz va sarimsoqpiyozlar ekilgan. Sabzavot ekinlarini noodatiy sovuq oqimlardan asrashda dehqonlarimiz quyidagi usullarni qo'llashi mumkin:

- ekin maydonlari ustini plyonka bilan oddiy yoki duga usulda yopish;
- mahalliy chirigan go'ng, sholi qipig'i va apilka bilan mo'lchalash;
- somon yoki mayin xashakni o'simlik ustiga yoyib chiqish.

Bundan tashqari, sabzavot ekilgan dala maydonida shamol oqimiga qarab, olov yoqib tutatish ham birmuncha foyda beradi.

To'qsonbosti usulida ekilgan sabzi, piyoz, osh lavlagi, ko'kat, sabzavot ekinlari urug'i hali yerdan unib chiqmagan bo'lsa, sovuqdan zararlanish ehtimoli juda past bo'ladi.

Chorva hayvonlarini anomal sovuqdan saqlashda birinchi navbatda ularni to'la qiymatli ozuqalar bilan oziqlantirish lozim. Suv berish zarurati bo'lganda iliq suv ichirish, ozuqalarni o'ragan holda saqlash zarur.

Chorva saqlanadigan joylar sovib ketishining oldini olish ham muhim vazifa sanaladi.

Zamonaviy yirik shoxli chorva fermalarida zararli gazlarni ko'paytirmaslik, namlikni qochirish maqsadida ventilyatsiyani vaqti-vaqti bilan ishlatish talab etiladi. Imkoni bo'lsa, quruq issiq havo bilan ta'minlash chorasini ko'rish lozim.

Qo'ylar suruvlarini qishlov nuqtalaridan uzoqlashtirmaslik, o'ta sovuq kunlarda esa qishki kashar(qo'ton)larda saqlash yaxshi samara beradi.

Asalari oilalarini yer ustida paseykalarda sovuq qishdan saqlab qolish uchun uyadagi bo'sh ramkalarni olib tashlash va maxsus ko'rpacha va yostiqchalar bilan berkitish, uya tirqishlarini qisqartirish va uyalarni o'ralgan joyda saqlash, asalarilarga qo'shimcha ozuqa berib borish tavsiya etiladi.

**Sodiq MAMASOLIYEV,**
**viloyat agroxizmatlar markazi direktori.**



# Yangi mahsulot

**Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida mikronutriyentlar yetishmasligi onalar va bolalar o'rtasida kasallik va o'lim darajasining oshishiga, bolalar va o'smirlarning intellektual-jismoniy rivojlanishining susayishiga olib keladi. Katta yoshdagi insonlarning esa ish qobiliyatining pasayishini keltirib chiqaradi. Bu salbiy oqibatlarning oldini olishning birdan-bir xavfsiz va tejamli usuli oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibini boyitish ekanligi isbotlangan.**

Shu asosda institutimizning servis kafedrasi professor-o'qituvchilari behi mevasi asosida mahalliy xomashyolardan foydalanib, tarkibi boyitilgan yangi konserva mahsulotlari ishlab chiqarish borasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib bormoqda. Biz behi mevasi bilan baravar pishadigan va narxi yuqori bo'lmagan xomashyolarni tanlab, ulardan foydalanishni maqsad qilib qo'ydik. Behi bilan barobar yig'ishtirib olinadigan mevalar qatoriga limon, xurmo, unabi kabi mevalar va sabzi kabi sabzavotlarni kiritish mumkin. Biz aynan shulardan qo'shimcha xomashyo sifatida foydalanib, sukat mahsulotlari tayyorladik.

Bunday ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishga bakalavriat talabalarining ishtiroki ham ta'minlanmoqda. Bundan tashqari, kafedramiz yosh o'qituvchilaridan ayrimlarining ilmiy daraja olish uchun bajarayotgan dissertatsiya ishlari ham aynan tarkibi boyitilgan, funksional ahamiyatga ega bo'lgan innovatsion mahsulotlar yaratish muammolari bilan bog'liqdir.

**Ro'ziboy NORMAXMATOV,**
**SamISI professori,**
**texnika fanlari doktori.**
**Akram G'AFUROV,**
**katta o'qituvchi.**

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

**DA'VOLAR BO'LSA...**

Past Darg'om tumanidagi "MASTER HAUSE GOLD" mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR: 309109117) o'z ustav fondini 9 443 970 000 (to'qqiz milliard to'rt yuz qirq uch million to'qqiz yuz yetmish ming) so'mdan 1 947 466 970 (bir milliard to'qqiz yuz qirq yetti million to'rt yuz oltmish olti ming to'qqiz yuz yetmish) so'm kamaytirib, 7 496 503 030 (etti milliard to'rt yuz to'qson olti million besh yuz uch ming o'ttiz) so'm etib belgilamoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Past Darg'om tumani Kimyogarlar mahallasi.**

* * *

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Pardayev Mehriddin Muhiddin o'g'li notarial idorasida marhum Rustamov Bolikulga (2022-yil 20-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Pardayev Mehriddin Muhiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani "Alisher Navoiy" MFY, Amir Temur ko'chasi.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Baxramova Feruza Zairovna notarial idorasida marhum Goryunova Natella Yakovlevnaga (2022-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Baxramova Feruza Zairovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 108-uy.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Saidov Xalil Sharipovichga (2021-yil 7-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Bamo Jo'rakulovna notarial idorasida marhum Baxodirov Farrux Baxodir o'g'liga (2019-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Bamo Jo'rakulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashirova Dilofruz Ziyadullayevna notarial idorasida marhum G'oibov G'ofirjon Jumanovichga (2021-yil 1-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashirova Dilofruz Ziyadullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.**

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Alayev Raximkul Rasulovichga (2015-yil 10-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.**

